



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 9 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 9

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 9



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Otabek Alimardonov “MIGRATION AS A TOOL OF PUBLIC DIPLOMACY IN CENTRAL ASIA: CHALLENGES, STRATEGIES, AND PROSPECTS”.....	5
2. Nilufar Djurayeva SOVET DAVRIDA XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARI: MAQSAD VA VAZIFALAR, NATIJA VA MUAMMOLAR.....	14
3. Нодира Джанибекова ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ОЛИЙ МАЖЛИСА ВТОРОГО СОЗЫВА.....	25
4. Боходир Эшов, Нурали Ҳазратов, Шавкат Каромов УСТРУШОНАДАГИ ИЛК ДАВЛАТ УЮШМАСИ ТАРИХИНИНГ ТАХЛИЛЛАРИ.....	30
5. Бехзод Исабеков ҚОВУНЧИ МАДАНИЯТИНИНГ КАТАКОМБА ҚАБРЛАРИ: ОҲАНГАРОН, КАНДИРСОЙ МИСОЛИДА.....	38
6. Ibragim Ibragimov QUYI AMUDARYO HUDUDIDA HUNARMANDCHILIK TARIXI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR.....	44
7. Shuhrat Norov ZARAFSHON VOHASI VILOYATLARIDA YOSHLAR TASHKILOTLARINING IJTIMOIIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI ROLI.....	48
8. Muxlisa Ro‘ziyeva O‘ZBEKISTONDA 1991–2025- YILLARDA BOLALAR SPORT SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI.....	53
9. Xo‘sinboy Sapayev KO‘CHMANCHI SAK QABILALARINING DINIY E‘TIQODLARI, URF-ODAT VA AN‘ANALARI.....	58
10. Mansur Fayzullayev XX ASRNING 60-80-YILLARIDA O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGINING IXTISOSLASHTIRILISHI (SURXONDARYO, QASHQADARYO VILOYATLARI MISOLIDA).....	63
11. Турғунжон Ярмагов ЭТНОГРАФИК ЖИХАТДАН ФОЛЬКЛОП МАНБАЛАРНИ ЎРГАНИШНИНГ ТАДҚИҚОТ МЕТОДЛАРИ.....	68
12. Gulom Djumamuratov O‘ZBEK ULUSIDAGI OROL O‘ZBEKLARI ETNIK TARKIBIGA DOIR MANBALAR TAHLILI.....	73



Shuhrat Suvonovich Norov,
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasini mudiri

ZARAFSHON VOHASI VILOYATLARIDA YOSHLAR TASHKILOTLARINING IJTIMOIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI ROLI

For citation: Shuhrat S.Norov. THE ROLE OF YOUTH ORGANIZATIONS IN SOLVING SOCIAL PROBLEMS IN THE REGIONS OF ZARAFSHAN OASIS. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 9.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17548800>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Zarafshon vohasi va ushbu vohada faoliyat yurituvchi yoshlar tashkilotlarining faoliyatlari hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar va chora-tadbirlar haqida keng qamrovli ma'lumotlar keltirilgan. Zarafshon vohasi, o'zining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va tabiiy resurslari bilan mintaqada muhim ahamiyatga ega bo'lib, yoshlar uchun turli imkoniyatlar yaratayotganligi, hududda faoliyat yuritayotgan yoshlar tashkilotlari asosan yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni kasb-hunar tayyorlashga yo'naltirish, madaniy va sport tadbirlarini tashkil etish, shuningdek, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish kabi sohalarda faol ishlar olib borilayotganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Zarafshon vohasi, iqtisodiy barqarorlik, yoshlar bandligi, yoshlar daftari, besh tashabbus, yosh kitobxon, teatr va kino savodxonligi.

Шухрат Сувонович Норов,
Доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Навоийский государственный горно-технологический университет
Заведующий кафедрой «Социально-гуманитарные
науки и физическое воспитание»

РОЛЬ МОЛОДЕЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РЕШЕНИИ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ В РЕГИОНАХ ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлена подробная информация о Зарафшанском оазисе, деятельности молодежных организаций действующих в оазиса, а также о реформах и мерах, направленных на поддержку молодежи. Зарафшанский оазис, благодаря своему социально-экономическому потенциалу и природными ресурсами, имеет важное значение в регионе. Предоставляя различные возможности для молодежи, молодежные организации, действующие в регионе, ведут свою деятельность в основном в сфере повышения социальной активности молодежи, направлении ее на профессиональную подготовку,

организации культурных и спортивных мероприятий, а также в пропаганде здорового образа жизни среди молодежи.

Ключевые слова: Оазис Зарафшан, экономическая стабильность, занятость молодежи, Молодежная тетрадь, пять инициатив, юный читатель, театральная и кинограмотность.

Shuhrat Suvonovich Norov,

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences,
Associate Professor
Navoi State University of Mining and Technology
Head of the Department of “Social and Human
Sciences and Physical Education”

THE ROLE OF YOUTH ORGANIZATIONS IN SOLVING SOCIAL PROBLEMS IN THE REGIONS OF THE ZARAFSHAN OASIS

ABSTRACT

This article provides comprehensive information about the activities of the Zarafshan Oasis and youth organizations operating in this oasis, as well as reforms and measures aimed at supporting youth. Zarafshan oasis, with its socio-economic potential and natural resources, is important in the region, providing various opportunities for young people, youth organizations operating in the area are mainly cited for active work in areas such as increasing the social activity of young people, directing them to vocational training, organizing cultural and sports events, as well as promoting a healthy lifestyle among young people.

Index Terms: Zarafshan Oasis, economic stability, youth employment, youth notebook, five initiatives, young reader, theater and film literacy.

Mavzuning dolzarbligi:

Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat dunyosida yoshlar jamiyatning eng faol, yangilikka intiluvchan va ijtimoiy o'zgarishlarga e'tiborli va sezgir qatlami hisoblanadi. Ularning yangi g'oyalarga ochiqligi, ijtimoiy adolat va tenglikka intilishi, zamonaviy axborot dunyosidan erkin foydalanishi va texnologiyalarga bo'lgan qiziqishlari ijtimoiy jarayonlarning faol yetakchi qatlamiga aylantiradi. Bugungi murakkab vaziyatli davrda yoshlar nafaqat o'z mamlakatidagi balki xalqaro darajadagi muammolarni hal etishda ham o'z tashabbuslarini ko'rsatishmoqda. Yorqin misol tariqasida, iqlim o'zgarishidagi muammolar, ta'lim sohasidagi notenglik, barcha jamiyatlarning og'riqli muammoasi bo'lgan ishsizlik va gender tengligi kabi masalalarning innovatsion yechimlarini topishda tobora o'z faolliklarini namoyon etib borishmoqdalar.

Yoshlar har qanday jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Aynan jannatmakon diyorumiz O'zbekistonni misol qilib olsak, so'ngi yillarda yoshlarning ijtimoiy faolligi sezilarli darajada oshgan. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan ham yoshlar masalasi alohida ahamiyat kasb etuvchi masala sifatida qaralib, yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga egadir.[1] Yoshlarni qo'llab quvvatlash, ularning ta'lim va bandligini ta'minlash, ijtimoiy tashkilotlarda faol ishtirok etishlariga imkon yaratish provardida bugun ko'plab sohalarda loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Zarafshon vohasi yoshlar faoliyati va qo'llab-quvvatlash tizimi mavzusida o'rganish darajasi o'rta darajada hisoblanadi. Hududda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar va chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar mavjud, biroq ularning samaradorligi va yoshlar ehtiyojlariga mosligi haqida chuqur tahlillar yetarli emas. X.I.Xidirov, S. Otamuratov, I. Saifnazarov, A. Mavrulov, O. Ata-Mirzayev, V. Genshke, R. Murtazayeva, M. Bazarova, G. Abdulloeva, N. Qo'ziyev, R. Qosimov, B. Xodiyev, A. Bekmurodov, Q. Quronboyev, O. Salimov, A. Toshqulov, U. Begimqulovlar tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Tadqiqot natijalari:

Zarafshon vohasida – ya’ni Navoiy, Buxoro va Samarqand viloyatlari bu borada alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Ushbu hududlarda yoshlar tashkilotlari faoliyati tobora takomillashib, turli muammolarning muqobil yechimlarini topishga harakat qilinmoqda. O’tkan ikki yillik davr mobaynida, Davlat tomonidan alohida e’tibor talab qiladigan 396 ming nafar yoshga rasmiy yetakchilar birlashtirilgan holda, ular bilan individual ishlash orqali 94 ming nafar yosh ish bilan ta’minlandi, 56 ming nafari esa kasb-hunarga o’qitildi. “Yoshlar daftari” orqali ko’rsatiladigan yordam turlari soni 30 taga yetkazildi, arizalarni ko’rib chiqish muddati esa 30 kundan 5 kungacha qisqartirildi. Yoshlar yetakchilarining tavsiyasi asosida 338 ming nafar o’g’il-qizga 444 milliard so’m miqdorida yordam ko’rsatildi. Xususan, talabalar kontrakt to’lovlari to’lab berildi, xorijiy tillar va zamonaviy kasblarni o’rganish xarajatlari qoplab berildi. Ishsiz yoshlarga mehnat qurollari tarqatildi. “Yoshlar bandligini ta’minlash dasturi” har bir mahallada amalga oshirildi. 236 ming nafar ishsiz yigit-qiz va 189 ming nafar maktab bitiruvchilari ish bilan ta’minlandi. “Besh tashabbus olimpiadasi” 4 yo’nalishda – tuman, maktab, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim tizimi doirasida o’tkazildi, jami 12 million nafar yoshlar unda ishtirok etdi. G’olib mahallalarda 623 ta sport maydonchasi qurildi. Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan “Zakovat” va boshqa shu turdagi o’yinlar tashkil etilib, ularga 2 million nafar yosh jalb etildi.[2]

Yoshlar orasida xorijiy tillarni o’rganishga bo’lgan ishtiyoqni kuchaytirish maqsadida “Ibrat farzandlari” loyihasi doirasida xorijiy tillarni o’rganayotgan 1 million nafar yoshga, “Mutolaa” dasturi orqali esa 1,5 million nafar kitobxon yoshga yetib borish choralari ko’rildi. Shu maqsadda hududlarda qo’shimcha infratuzilma barpo etish, yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ularning iste’dodini ro’yobga chiqarish uchun keng sharoitlar yaratildi.

2020 – 2021 yillarda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida Zarafshon vohasi viloyatlarida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinganda mahalliy hokimliklar ko’magi bilan O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi (O‘YoI) va Yoshlar ishlari agentligi (YoIA) tomonidan muhim natijalarga erishilganini ta’kidlash lozim. Xususan, Navoiy viloyatida 47,5 gektar maydonda 11 ta «Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi» tashkil etilib, umumiy qiymati 238,5 mlrd so’mlik 293 loyiha amalga oshirilib 1674 nafar yosh ish bilan ta’minlangan. Viloyatda 2018 – 2021 yillar davomida 20 mingdan ortiq yoshga imtiyozli kreditlar ajratilib, jami 680 mlrd so’mni tashkil etgan. Yoshlarning tadbirkorligini qo’llab-quvvatlashda «Yoshlar – kelajagimiz» jamg’armasining hissasini alohida ta’kidlash kerak. 2018 – 2019 yillarda davlat tomonidan 2 trln so’mdan ortiq mablag’ ajratilib, 50 mingga yaqin yangi ish o’rni yaratilgan, bu jarayonda Zarafshon vohasi viloyatlarining ham salmoqli hissasi bor.[3]

Hududdagi yirik sanoat korxonalarining yoshlarga ish o’rinlarini yaratishdagi faoliyati ham e’tiborga loyiqdir. Jumladan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJ (NKMK) 2017–2020 yillar davomida 7 mingdan ortiq kishini ish bilan ta’minlagan bo’lsada, ularning 60 foizi 18 – 30 yoshdagi yoshlardir. [4] 2020-yilda yaratilgan 3491 ta yangi ish o’rnidan 1790 tasi yoshlar hissasiga to’g’ri kelgan. Yoshlarga manzilli yondashuvni shakllantirishda «Yoshlar daftari» mexanizmi muhim vosita bo’lib xizmat qilgan. 2021- yil yakunlariga ko’ra, bu tizim orqali kasb-hunarga o’qitilgan yoshlar soni Samarqand viloyatida – 180 nafar, Buxoroda – 1199 nafar, Navoiyda – 819 nafarni tashkil etgan. Shu bilan birga, ishga joylashtirilgan yoshlar soni Samarqandda – 1910 nafar, Buxoroda – 10315 nafar, Navoiyda – 8802 nafar, tadbirkorlikka jalb etilganlar esa Samarqandda – 566 nafar, Buxoroda – 2845 nafar, Navoiyda – 3831 nafarni tashkil etdi. Xorijda mehnat faoliyatiga jalb etilgan yoshlar soni esa nisbatan kam bo’lib, Samarqand – 20 nafar, Buxoro – 603 nafar, Navoiy – 15 nafarni tashkil etgan. [5] Navoiy viloyati misolida biz barqaror yoshlar bandligini rivojlantirishga xizmat qilgan bir qator harakatlar rejasini ko’rib chiqishi orqali, harakatlar rejasi tizimli ravishda Zarafshon vohasidagi 17 yoshdan 30 yoshgacha bo’lgan yoshlar soni tahlil qilindi. Ushbu yoshdagi yoshlarda mutaxassislik bor-yo’qligi va bandlik muammolari bo’yicha so’rovnoma o’tkazildi. Hukumat qaroriga asosan dastur ijrosi muddati doimiy ravishda tasdiqlanib borildi. Viloyat, shahar va tumanlarning birinchi rahbarlari – hokimlar javobgar etib belgilandi. 2017-yilda O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining tashkil etilishi, yoshlar mehnat yarmarkalari, Navoiy viloyatining

tuman va shaharlarida tashkil etilgan mehnat markazlari yoshlar bandligini ta'minlashda samarali natijalar berdi.[6]

Yoshlarning madaniyatini yuksaltirish ularni jamiyatda mas'uliyatli, ma'naviy yetuk shaxslar sifatida shakllanishiga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotga xizmat qiladi. Ayni shu maqsadda Zarafshon vohasida ham madaniy- ijtimoiy loyihalar, milliy festivallar, sport musobaqalari, ijodiy tanlovlar tashkil etilib kelinmoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi va "30 iyun – Yoshlar kuni" munosabati bilan 2024-yilning 29-iyun kuni Navoiy shahrida kombinat yoshlari o'rtasida sport o'yinlari hamda qator madaniy-ma'rifiy tadbirlar bo'lib o'tdi. Ushbu tadbir davomida "Zakovat" intellektual o'yini, "Quvnoqlar va Zukkolar", "Kibersport" musobaqlari o'tkazildi va g'olib guruhlar esdalik sovg'alar bilan rag'batlantirildi.[7]

Dunyoda barcha xalq va madaniyatlarni birashtirib bir makonga chorlovchi "Sharq Taronalari" XIII Xalqaro Musiqa Festivali ham yosh avlodning madaniy va marifiy salaohiyatini o'stirishga, qadryatlari va tarixini asrab avaylashga undaydigan festivalardan biridir. 2024- yilning avgust oyida Samarqandda o'tkazilgan bu festivalda 300 dan ortiq san'atkorlar ishtirok etdi. Festivalda turli xil xalq va madaniyatlarning milliy musiqalari va raqslari ham namoyish etildi, bu esa madaniyatlararo almashuvni yanada rivojlantirdi. Ushbu festivalda ishtirok etgan qatanshchilarning aksariyati yoshlar edi va ular dunyo xalqlari milliy qadryatlari va san'ati bilan tanishganlaridan ham manun bo'lishdilar.[8]

Ayni shunday tadbirlardan Samarqand shahrida o'tkazilgan "Global yoshlar festivali - 2025" misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Ushbu tadbir doirasida, "Yoshlar tadbirkorligi" haftaligi bo'lib o'tib, Xitoy, Pokiston kabi davlatlardan ham ekspertlar ishtirok etishdi. Ushbu haftalik davomida ikki tomonlama do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash va yosh tadbirkorlar o'rtasida hamkorlik o'rnatishga qaratilgan istiqbolli rejalar taqdimot qilindi. O'zbekiston va Pokiston o'rtasida yoshlar siyosati sohasida hamkorlikning 2025-2026-yillarga mo'ljallangan harakatlar rejasi ishlab chiqildi. Bunday amaliy xalqaro tadbirlarning tashkillashtirilishi yoshlar siyosatining ham ichki ham tashqi tomonlama rivojlantirishga imkoniyatlar yaratishga xizmat qilishi rejalashtirilgan.[9]

Mahalliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishda teatr va kino san'ati orqali Zarafshon vohasining boy madaniy merosi, xalq an'analari, tarixiy voqealari kengroq auditoriyaga taqdim etilishi mumkin. Teatr va kino tadbirlari aholining turli qatlamlarini birlashtirib, ijtimoiy muammolar, qadriyatlar haqida fikr almashishga imkon beradi. Kino va teatr orqali jamiyatda dolzarb masalalar (atrof-muhit muhofazasi, ijtimoiy adolat, sog'liq) haqida xabardorlik oshiribgina qolmay, ushbu sanoat rivojlanishi bilan aktyorlik, texnik ishchilar, ishlab chiqaruvchilar, marketing mutaxassislari uchun ish o'rinlari paydo bo'ladi. Yosh avlodni san'atga jalb qilish, ijodiy fikrlash va tanqidiy qarashlarni rivojlantirish uchun teatr va kino samarali vosita hisoblanadi. Biroq bugungi kunda Zarafshon vohasi hududlarida ushbu soahaga bo'lgan ehtiyoj va qiziqish past bo'lib, ularning soni kamchilikni tashkil etadi. Misol tariqasida birgina Navoiy shahrida joylashgan teatr va kinoteatrlarga tashrif byuruvchilarning soni 3,5 mingni tashkil etadi. Ushbu sohalarni ham yanada chuqurroq o'rganish, ularning moddiy-texnik bazalarini yangilash asosiy vazifalardan biri bo'lib turibdi.[10]

Xulosa:

Yoshlar tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan loyihalar va tadbirlar orqali yoshlar o'rtasida ijtimoiy adolatni mustahkamlashga qaratilgan muhim qadamlar tashlanadi. Ushbu tashkilotlar yoshlarni so'lom turmush tarziga undash, sport va madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali ularda ijobiy odatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Jamiyatning turli guruhlari o'rtasida ko'prik vazifasini bajaruvchi ushbu tashkilotlar, yoshlarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga undab, ularning jamiyatdagi o'zgarishlarni boshqaruvchi kuchi sifatida tayyorlaydi. Zarafshon vohasida ham yoshlar tashkilotlari yoshlarning faolligini oshirish, ijtimoiy adolatni mustahkamlash orqali butun jamiyatni rivojlantirishga xizmat qilmoqda va ushbu faoliyatlar farovon jamiyat barpo etishda muhim poydevor hisoblanadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Shavkat Mirziyoyev: Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega <https://yuz.uz/uz/news/shavkat-mirziyoyev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega>
2. The development of each country has its own aspects and units of measurement. https://yuz.uz/en/news/yangi-ozbekistonda-yoshlar-siyosati?utm_source=chatgpt.com
3. Ходжаев Ж., Аслонов О., Душанов Ю., Хайдаров Р., Бахромов У., Султонов Г., Мустафоев О. *Yoshlar –uchinchi renisans bunyodkori* – Тошкент: САННОФ, 2021. – В.15.
4. Санақулов Қ.С. НГМК: Юксалиш ва янгиланишлар даври – Навоий: Навоий кон-металлургия комбинати, 2022. – Б. 60-61.
5. Рахбар ва ёшлар учрашуви / Кончилик ҳаёти, 2021 йил 19 март.
6. Suvonovich, N. S. (2022). Youth employment in Zarafshan oasis: historical experience of Navoi region. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 11, 12-17.
7. Yoshlarni birlashtirgan tadbir <https://www.ngmk.uz/ru/press-center/news-and-press-releases/1908-yoshlarni-birlashtirgan-tadbir/>
8. Samarqand kunlari Jamiyat https://uza.uz/oz/posts/yaponiyada-samarqand-kunlari_497402?utm_source=chatgpt.com
9. Samarqandda Global yoshlar festivali — <https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/59280>
10. Норов Ш.С., Сувонова Ж.Ш. Тошпулатов М.З. Государственная молодежная политика и ее историческое значение в контексте Нового Узбекистана // *Инновационный потенциал молодежи: патриотизм, традиции, инновации.*—Екатеринбург, 2023 С. 169-174



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000